

MANBASHUNOS OLIM BEGALI QOSIMOVNING NAVOIYSHUNOSLIK  
ILMIGA QO‘SHGAN HISSASI

**Nurmatullayeva Zilola Xikmatilla qizi**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*  
*o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistri*  
E-mail: [zilolanurmatullayeva@gmail.com](mailto:zilolanurmatullayeva@gmail.com)  
Tel: (97) 4005878

**Annotatsiya:** mazkur maqolada o‘zbek adabiy manbashunosligining yirik namoyandasi Begali Qosimovning navoiyshunoslik sohasiga qo‘shgan ilmiy hissasi yoritilgan. Olim Alisher Navoiy asarlarini asliy manbalar asosida o‘rganib, ularning badiiy, falsafiy va umuminsoniy mazmunini chuqur tahlil etgan. Maqolaning kirish qismida filologik fanlar tizimida matnshunoslikning tutgan mavqei atroflicha yoritilgan bo‘lib, tadqiqotning asosiy qismida Begali Qosimovning Navoiy lirikasida ilgari surilgan komil inson, go‘zallik va ma‘naviy kamolot g‘oyalariga bergan talqinlari tahlil qilingan. Shuningdek, olimning Navoiy ijodini millat, o‘zlik va til uyg‘unligi bilan bog‘lab o‘rganishdagi yondashuvi ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan. Xulosa qismida Begali Qosimovning navoiyshunoslikni yangi bosqichga ko‘targan ilmiy merosi umumlashtirilgan.

**Kalit so‘zlar:** navoiyshunoslik, matnshunoslik, o‘zbek mumtoz adabiyoti, Begali Qosimov, tadqiqot, matnshunos, manbashunos, shoir, asar bosh g‘oyasi, inson kamoloti, milliy til.

**Abstract:** this article highlights the scholarly contribution of Begali Qosimov, a prominent figure in Uzbek literary source studies, to the field of Navoiy studies. The scholar conducted an in-depth analysis of Alisher Navoiy’s works based on original manuscripts, exploring their artistic, philosophical, and humanistic dimensions. The introduction discusses the position and importance of textual studies within the broader system of philological sciences. In the main part of the research, Qosimov’s interpretations of the ideas of the perfect human, beauty, and spiritual maturity reflected in Navoiy’s lyrical heritage are analyzed in detail. The article also demonstrates, on a scholarly basis, Qosimov’s methodological approach to studying Navoiy’s creative legacy in connection with concepts of nationhood, identity, and linguistic unity. In the conclusion, the paper generalizes Qosimov’s invaluable scientific legacy, which elevated the study of Navoiy’s works to a new stage of development.

**Keywords:** navoiy studies, textual studies, Uzbek classical literature, Begali Qosimov, research, textologist, source studies, poet, main idea of the work, human perfection, national language.

Filologik fanlar tizimida tilshunoslik va adabiyotshunoslik qanday mavqeni egallasa, matnshunoslik ham adabiyotshunoslikning yondosh yo‘nalishi sifatida yuqori o‘ringa egadir.

Boisi, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning o'rganuvchi obykti matn bo'lgani holda, agar tilshunos yoki adabiyotshunos, avvalo, o'zi tadqiq etayotgan manbani asliyatdan o'qimas ekan, uning tadqiqoti soflik va aniqlikdan yiroq bo'ladi.

Mazkur fikrga tayangan holda, manbashunos olim Begali Qosimovni ilg'or adabiyotshunos sifatida manbani asliyatdan to'g'ridan-to'g'ri o'qib tahlilga tortganini alohida ta'kidlash lozim. Ayniqsa, olim yurtimizda olib borilayotgan navoiyshunoslik ilmidagi ishlarga o'z tadqiqotlari bilan salmoqli hissa qo'shgani ilm ahliga ma'lum.

Begali Qosimov umrining ko'pgina qismini Alisher Navoiy ijodini o'rganish, uning qalamiga mansub she'rlarni tahlil etish, vazn, o'lchov va janr kabilarni tadqiq etishga sarfladi. Natijada uning aniq, isbot talab qilinmaydigan tadqiqotlari navoiyshunoslik ilmining rivoji uchun muhim ilmiy manba bo'ldi. U Alisher Navoiyning betakror va poyonsiz go'zal ijodiyoti haqida gapirib, shunday ta'kidlaydi: "Uning ijodi o'zbeklarining "Budi-bidoyi"sidan "Alanquvo"sigacha, "Adib Ahmad"idan "Mavlono Lutfiy"sigacha o'ziga singdirgan edi. Uning ijodini shuning uchun ham cho'qqi deymizki, bu ijod mana besh asrdan oshibdiki, avlodlarga maktab, o'lmas g'oyalari bizga hamkor va hamdast"<sup>29</sup>.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy butun umrini millati manfaati uchun sarf etgan avlodlarga o'rnak bo'lguchi mutafakkir va davlat arbobi. U umri davomida turkiy til dovrug'ini dunyoga yoyish va tanitish uchun tinimsiz harakat qildi. Har bir kundan, har bir daqiqasidan unumli foydalandi. Navoiy bir vaqtning o'zida ham turkiy til yaratuvchisi, ham tilning oshuftasi bo'ldi. Ammo tilni sevib, unga oshiq bo'lgandan uni yaratish tirik, lekin o'likdek bo'lib qolgan tilga qaytadan jon ato etish murakkab va qiyin vazifadir.

Navoiy yashagan davrda turkiy til faqat nomi jihatidan mavjud edi, lekin adabiyot, san'at kabi sohalarda, insonlar o'rtasidagi suhbat jarayonida ham qo'llanilishi ancha pasaygan, g'arib ahvolga kelgan edi. Shoir, yozuvchilar forsiy yoki arabiyda ijod qilardi. Zamon "turkiy til avom tili" aqidasi paydo qilgan edi. Umuman olganda, o'sha davrda turkiy til mavqeyi pasaygan, til obro'si butkul yo'qolgan edi.

Alisher Navoiy turkiy tilga Masih kabi jon ato etdi. Ilk turkiy tildagi "Xamsa" o'lik tilni qaytadan yaratdi. Tilning butun jilosi, xususiyat va imkoniyatlari bilan gavdalandirgan bu ijod namunasi Alisher Navoiy nomini dunyoga yoydi. U barcha asarlarida insonni ulug'ladi. Insonning eng ezgu sifatlarini go'zal tarzda gavdalandirdi. Insonni borliqning mehvari deya atadi. Uni ilohiylashtirib, tasavvufiy timsol va ramzlar orqali so'fiyona qobiqda ifodaladi. Navoiy dunyo va insonning yaratilishidan maqsadni quyidagicha ifodalaydi:

*Muncha g'aroyibki misol aylading,  
Barchani mir'oti jamol aylading.  
Ganjing aro naqd farovon edi,  
Lek boriding g'araz inson edi.  
Barchasini garchi latif aylading,  
Barchadin insonni sharif aylading.*

<sup>29</sup> Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011. – 96. б.

Mutafakkirning mazkur satrlarida Yaratganga murojaat tarzida bitilgan mazmun mavjud. Ya'ni: "Barcha yaratqilaringni go'zal, naqshinchor qilib yaratding, naqshlaringni bir-biridan a'lo qilding; Lekin barchasidan ham insonni latif va sharif qilding" ma'nosida inson zotini azizligi qalamga olingan. Bu satrlarni shoirning hayoti va faoliyatining, umuman olganda, yashashdan maqsadining dasturi bo'lib xizmat qilgan "Odami ersang demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami" satrlarining mantiqiy davomi sifatida tushunish mumkin.

Matnshunos Begali Qosimov Navoiy lirikasi va undagi tashilgan umuminsoniy g'oyalar haqida to'xtalib shunday yozadi: "Uningcha, go'zallik mukammallikdir. Sarv mavzun – xushqomat bo'lmasa, u sarv emas. Gul gulgun bo'lmasa, ko'zni yashnatmasa, gul emas.

*O'tg'a solg'il sarvni ul qaddi mavzun bo'lmasa,  
Elga bergil gulni ul ruhsori gulgun bo'lmasa.*

Navoiy bu fikrni butun ijodida, masalan, epik qahramonlari misolida ham ko'rsatib berdi. Chunonchi, Farhod har jihatdan mukammal edi. Bunday nuqtayi nazar – garmonik taraqqiyotni ilgari surish dunyoni yangicha idrok etishning – Renessansning eng muhim xususiyatlaridan edi"<sup>30</sup>.

Begali Qosimov Alisher Navoiy lirikasidagi bosh g'oya haqida izchil fikr yuritadi. Uning qarashlariga ko'ra, shoir she'riyatining bosh mavzusi bu komil inson. Komil insonning bu hayotdagi o'rni yaxshilik bilan chiqarilgan yaxshi nomida. U umrning foniyligi va bebaqoligi haqida yozib, inson umrining abadiyligi uning yaxshiliklari bilan o'lchanishini ta'kidlaydi. Olim Alisher Navoiyning quyidagi misralarini keltirib:

*Bu gulshan ichraki yo'qtur baqo guliga sabot  
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.*

"Bu gulshandaki so'lmaydigan gul yo'q ekan, hamma birin-ketin ajal sharbatini ichar ekan, yaxshilik bilan chiqarilgan ot tugayligina abadiy yashab qolish mumkin, xolos. Boshqacha aytganda, o'lmaslikning yo'li bitta – yaxshi nom – mana shu shoir umrining mazmuni, ijodining bosh shiori"<sup>31</sup>, - deya so'z yuritadi.

Olimning navoiyshunoslikka qo'shgan hissasi haqida so'z yuritilsa, uning Alisher Navoiy g'azallarini g'oyaviy-badiiy va tarkibiy-konseptual tahliliga alohida to'xtalib o'tganini keltirib o'tish lozim. U Navoiy g'azallariga xos xususiyat haqida so'zlab quyidagi g'azalni tahlil qiladi:

*G'azalda uch kishi tavridur ul nav'  
Kim andin yaxshi yo'q nazm ehtimoli.  
Biri – mo'jizbayonliq sohiri Hind  
Ki ishq ahlini o'rtar so'zu holi.  
Biri Iso mafasliq rindi Sheroz,*

<sup>30</sup> Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011. – Б. 97.

<sup>31</sup> Ko'rsatilgan manba. Б.Қосимов – Б. 85.

*Fano dayrida mastu louboli.  
Biri qudsi osorliq orifi Jom  
Ki Jomi Jamdurur sing'on safoli.  
Navoiy nazmig'a boqsang, emastur,  
Bu uchning holiday har bayti xoli.  
Hamon ko'zgudurkim aks solmish,  
Anga uch sho'x mahvashning jamoli.*

G'azal mazmunidan seziladiki, g'azal yozishda uch asosiy yo'l va ana shu uch yo'lni boshlagan uch buyuk ustoz-murabbiy mavjud. Bu buyuk ustozlardan biri – o'z fikrlari va xulosalarini mo'jizaviy bayon qiluvchi hind sehgari Xusrav Dehlaviy. Uning har bir so'zi ishq ahli yuragini yondiradi. Ikkinchi murabbiy – bu foni dunyoning mast-u beparvosi, Iso nafasiga ega bo'lgan sherozlik rind Hofiz Sheroziy. Uchinchi ustoz – g'azallarida muqaddaslik mavjud bo'lgan, dunyoning barcha asrorlaridan voqif (orifi jom) Abdurahmon Jomiy. Navoiy har qancha urinmasin, bu uch ustozdan o'tolmaydi. Lekin sen uning she'rlarini o'qisang, biror satri ham bu uchala sifatdan holi emasligini ko'rasan. Uning she'rlari shunday ko'zgu, oyinadirki, bu uchala sho'x mahvashning jamoli unda aks etib turadi.

“Shoir, ko'ringanidek, o'zigacha bo'lgan Sharq g'azaliyotida uch ustoz, uch yo'l borligini ta'kidlayapti. Bular: ehtiroslar shoiri Xusrav Dehlaviy, hurfikr Hofiz, donishmand-faylasuf Jomiy. Navoiy o'z she'rida bularning har uchoviga xos xususiyatlar borligini qayd etyapti”<sup>32</sup>. Alisher Navoiy ijodiyoti o'zigacha bo'lgan shoirlar ichida ham, hozirgi kunga qadar shakllanib kelgan ijodkorlar uchun ham namuna yo'l hisoblanadi. Shoir she'rlarida insonning botiniy va zohiriy olamini akslantirgan barcha his-tuyg'u va kechinmalar mujassam. Qalblarni to'lqinlantiruvchi ilohiy ishq tarannumi, dunyo va oxirat xususidagi haqiqiy izohlar, insonlarni ezgulikka chorlovchi ta'sirli o'xshatish, qiyoslar Navoiyning barcha g'azallarida mushtarak tarzda yangraydi.

Alisher Navoiyning har bir ijod namunasi bir olam mazmunni o'zida mujassam etadi. Uning she'rlari faqat o'z davrida, vaziyatida o'qiladigan shunchaki davr ijtimoiy-ma'naviy hayoti yoritilgan yuzaki ma'noli asarlar emas, balki ular har qanday davrda insonlarni yuragiga ezgulik urug'larini sohadigan, umumbashariy va ma'naviy g'oyalarni o'zida mujassam etgan, xalqning yorqin kelajagini akstirgan umrboqiy ijod namunalaridir. Fikrimizcha, olim bilan shoirning o'zaro o'xshash jihatlari talaygina. Sababi, Navoiy umrini xalq manfaati uchun sarf etgan, asarlarida ham insonlarni yurt kelajagini obod qilishga chorlagan millat fidoyisi bo'lsa, manbashunos Begali Qosimov ham qisqa, ammo samarali umri davomida ona tili, uning rivoji uchun, kelajak avlod bexabar shonli o'tmish vakillarini tanitmoq uchun jonini koyitib mehnat qilgan, zarra mehnati taqdirlansa uni millatiga baxsh etgan jonkuyar murabbiy edi.

<sup>32</sup> Қосимов Б. Танланган асарлар, II жилд, “Алишер Навоий. Ғазал мулкининг султони” мақоласи. – Тошкент: Фафур Фулом нашриёт-матбаа уйи, 2023. – Б. 227.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Begali Qosimovning izlanishlari Navoiy merosini zamonaviy adabiyotshunoslik tamoyillari asosida qayta talqin qilishga, shuningdek, shoir asarlarining milliy o'zlikni anglashdagi o'rni va ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Begali Qosimov yaratgan ilmiy meros bugungi kunda ham navoiyshunoslik yo'nalishidagi izlanishlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois, olimning faoliyati bugungi davr o'zbek adabiyotshunosligi rivojida muhim o'rin egallaydi va yangi avlod tadqiqotchilari uchun ibrat maktabi sifatida qadrlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. – Тошкент: Фан, 1993.
2. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. Насрий баён Иноят Маҳсумовник. – Тошкент, Фафур Ғулом нашриёти, 1983.
3. Қосимов Б. Танланган асарлар. I жилд. Алишер Навоий. Ғазал мулкининг султони // Тошкент: Фафур Ғулом нашриёт-матбаа уйи, 2023.
4. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011.
5. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004.